

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE
OLIY TA'LIM MUASSASASI

“TASDIQLAYMAN”

University of Business and
Science

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor D. Xolmatov



2025-yil

**08.00.05. - « Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti» ixtisosligi bo'yicha
malakaviy imtihon
DASTURI**

Namangan – 2025

Annotatsiya:

Dastur 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligiga kiruvchilar uchun "Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti", "Buxgalteriya hisobi", "Turizm: nazariya va amaliyot", "Iqtisodiy tahlil va audit" va "Moliya va soliqlar" fanlari asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

Raximova M.I	–	UBS, Yashil iqtisodiyot kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
Jo'rayev I.K.	–	UBS, Yashil iqtisodiyot kafedrası dotsent v.b., iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ibragimova M.M	–	UBS, Yashil iqtisodiyot kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Dastur University of Business and Science institutining 2025-yil 31.10 dagi 3-sonli Kengash yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Xizmat ko'rsatish sohasiga ehtiyoj kundan-kunga, oydan-oyga va yildan-yilga oshib bormoqda. Chunki bunga ob'ektiv sharoit yaratilmoqda. Birinchidan, aholining daromadlari ko'payib, yashash sifatining ortib borayotganligi ko'pgina yangi-yangi xizmatlarni talab qilsa, ikkinchidan ishlab chiqarishning takomillashayotganligi ham ushbu sohaning jadal rivojlanishini talab qiladi. Xizmat ko'rsatish yetarli bo'lmagan joyda yuqori samaradorlikka erishish ham bir muncha qiyin. Shu tufayli ushbu soha eng tez rivojlanishini talab qiladigan sohalaridan biri bo'lib qolmog'i lozim.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish va servis sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va roli yildan-yilga oshib bormoqda. Buni ushbu sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi (YaIM) ulushining ortib borayotganligida ham ko'rish mumkin. Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va sifatini ko'tarish bo'yicha qilinishi lozim bo'lgan ishlar hali talaygina. Birinchidan, ushbu sohada xo'jalik yurishining bozor munosabatlariga asoslangan yangi sharoitlarga moslashish jarayoni takomillashishni talab qilsa, ikkinchidan, uni kompleks rivojlantirish bilan bog'liq ko'pgina muammolar ham o'z yechimini kutmoqda. Uchinchidan, hayot shiddat bilan o'zgarib bormoqdaki, ular xizmatlarning yangi-yangi turlarini joriy qilishni taqozo qiladi. Bularning barchasi mazkur sohada fundamental tadqiqotlarni olib borish bilan birga mutaxassislarni tayyorlashda o'quv adabiyotlariga ham kiritib, mukammal o'qitish zaruratini ham tug'diradi.

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligining vazifasi xizmat ko'rsatish faoliyatining iqtisodiy mohiyati, uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'rni, xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmat ko'rsatish faoliyatining maqsadlari, xizmat ko'rsatish faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi, xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlarining asosiy fondlari, aylanma mablag'lari, xizmat ko'rsatish korxonalarida marketing xizmatlarini rejalashtirish, xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari mehnatiga haq to'lash, xizmat ko'rsatish sohasida investitsiya jarayonlari, ishlab chiqarish va sotish xarajatlari, xizmat ko'rsatish sohasi korxona va tashkilotlarining daromadlari va rentabellik darajasi kabi masalalarni o'rganishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, o'simliklar ximoyasi va entomologik jaraenlarga uslubiy endashuv xamda ilmiy duneqarashini shakllantirish vazifalarini bajarad Bunda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarni oshirish va ko'nikma xosil qilishdan iboratdir.

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha

tayanch doktoranturaga kiruvchi da'vogarlar uchun "Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti", "Buxgalteriya hisobi", "Turizm: nazariya va amaliyot", "Iqtisodiy tahlil va audit" va "Moliya va soliqlar" fanlaridan savollar bazasi shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti fani bo'yicha:

Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti fanining nazariy masalalari. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. Xizmat ko'rsatish sohasin rivojlantirishning turlari va o'ziga xos xususiyatlari. Xizmat ko'rsatish sohasini ravojlanti-rishning konseptual yo'nalishlari va ularning kengaytirilgan ishlab chiqarish tizimidagi o'rni. Xizmat ko'rsatish sohasida modernizatsiyalash, va diversifikatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish yo'llari. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyaning mohiyati va turlarining nazariy masalalari. Xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularning tasnifi va aniqlanish yo'llari. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida. Sinergetik samara va undan foydalanish imkoniyatlari. Xizmat ko'rsatish sohasida klaster usulidan foydalanish imkoniyatlari. Xizmat ko'rsatish sohasida raqobat va biznes muhiti, ularning sohani rivojlantirishdagi ahamiyati. Aholiga ko'rsatiladigan pulli xizmatlar, ularning turlari, mohiyati va hisobga olish yo'llari. Aholiga ko'rsatiladigan uy-joy, kommunal va maishiy xizmatlar, ularni hisobga olish tartiblari. Yo'lovchi tashish transporti xizmatlari, ularning ahamiyati, turlari va hisobga olish yo'llari. Aloqa, axborotlashtirish va ta'lim tizimi xizmatlari mazmuni hamda ularni hisobga olish yo'llari. Madaniy, mayishiy va sayyohlik–ekskursiya xizmatlari turlari, ularning mazmuni va hisobga olish yo'llari. Sog'liqni saqlash (tibbiy), sanatoriya-kurort, sog'lomlashtirish, jismoniy madaniyat va sport xizmatlari xizmatlarining turlari, mazmuni hamda ularni hisobga olish yo'llari.

Turizm: nazariya va amaliyot fani bo'yicha:

"Turizm: nazariya va amaliyot" faniga kirish. Xorijiy turizm bozorini rivojlantirish tendensiyalari. Sayohatchi va turist haqidagi tushunchalarning mohiyati. Turizm sohasining tasniflanishi va turlari. Turizm sohasining resurslari. Turizm sohasini rivojlantirishda O'zbekistondagi tarixiy shaharlarning ahamiyati. Turizm sohasidagi xizmatlar va mahsulotlar. Turizm sohasida joylashtirish xizmatlari. Turizm sohasida ovqatlantirish xizmatlari. Turizm sohasida transport xizmatlari. Gid-ekskursiya xizmatlarini amalga oshirish jarayonlari. Turizm turlarini ishlab chiqish texnologiyasi. Turizm industriyasi va infratuzilmasi. Ekologik turizmni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari. Gastronomiya turizmini rivojlantirish istiqbollari. Xorijda qishloq turizmini rivojlantirish tajribasi.

Turizm sohasini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi va marketingi. O'zbekistonda xalqaro turizm tashkilotlarning o'ri. Turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish yo'nalishlari. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish istiqbollari. Turizm xizmatlarini litsenziyalashtirish, sertifikatlashtirish va standartlashtirish. Turizm sohasida xalqaro huquqiy va me'yoriy hujjatlar.

Iqtisodiy tahlil va audit fani bo'yicha fani bo'yicha:

Iqtisodiy tahlilning rivojlanish tarixi va fan sifatida shakllanishi. Iqtisodiy tahlilning predmeti, vazifalari va mazmuni. Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo'llaniladigan an'anaviy usullar. Iqtisodiy tahlilning turlari, axborot manbalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish. Korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullari. Korxonalar moliyaviy faoliyatini tahlil qilish usullari. Auditning mohiyati, uning maqsadi va vazifalari. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari. Auditorlik tekshiruvining turlari va shakllari. Auditorlik tekshirishni rejalashtirish. Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi.

Buxgalteriya hisobi fani bo'yicha:

Buxgalteriya hisobi fanining predmeti va usullari. Buxgalteriya balansi, schyotlar tizimi va ikki yoqlama yozuv. Pul mablag'lari va hisob-kitoblar hisobi. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va materiallar hisobi. Mehnat va unga haq to'lash hisobi. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi hisobi. Tayyor mahsulot va uning sotilishini, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisobga olish. Kapital fondlar va moliyaviy natijalar hisobi. Hisobotlarni tuzish va taqdim etish.

Moliya va soliqlar fani bo'yicha fani bo'yicha:

Moliya va davlatning vujudga kelishi, uning resurslarga bo'lgan ehtiyojining rivojlanishi. Tovar-pul, taqsimlash, qayta taqsimlash munosabatlari va moliya. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va funksiyalari bilan belgilanishi. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ifodalovchi ta'rif. Moliya va moliyaviy munosabatlarning xarakterli belgilari. Moliya yordamida ifodalanadigan pul munosabatlari. Zamonaviy iqtisodiyot va davlat moliyasi. Moliya va ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasi. Moliya va kredit. Moliya va ish haqi. Moliya va soliq. Ularning o'xshash va farqli jihatlari. Moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari. Ularning o'zaro bog'liqligi. Moliya tizimining sohalari va bo'g'inlari. Moliya tizimining ta'rif. Moliya tizimining sohalari va bo'g'inlari.

Davlat moliyasi va mahalliy moliya hamda xo'jalik yurituvchi subektlar

moliyasining bo'g'inlari. Moliya tizimining har bir sohasi va bo'g'iniga pul fondlari va daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanishning o'ziga xos bo'lgan shakllari va metodlarining tegishli ekanligi. Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati. Moliyaviy boshqaruvning boshqariladigan (obektlar) va boshqaruvchi (subektlar) tizimlar yagonaligidan iboratligi. Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik prinsiplari, konkret metodlari va shakllari. Moliyaviy rejalashtirish; bashoratlash (proгноzlashtirish); dasturlashtirish; moliyaviy tartibga solish; moliyaviy nazorat; moliyaviy qonunlarni (qonunchilikni) qabul qilish; moliyaviy resurslarni jalb qilish. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari. Moliya tizimini umumiy boshqarish va uni amalga oshiruvchi organlar. Moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash. Har qanday sotsial-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish tizimining asosiy bosqichlaridan biri rejalashtirish ekanligi. Uning istiqbolga yo'naltirilgan qarorlarni qabul qilish bo'yicha faoliyat deb talqin qilinishi. Moliyaviy rejalashtirishning ta'rifi. Moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy reja. Moliyaviy rejalashtirishning harakat etish doirasi. Uning asosiy vazifalari. Moliyaviy rejalashtirish amaliyotida qo'llaniladigan asosiy metodlar.

Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari. Moliyaviy rejalashtirish turlari: strategik moliyaviy rejalashtirish; joriy moliyaviy rejalashtirish, Moliyaviy nazorat: mazmuni, sohalari, obekti, predmeti, tizimi, vazifalari, prinsiplari. Moliyaviy nazoratning predmetini ifodalovchi moliyaviy ko'rsatkichlar. Moliyaviy nazorat moliya funksiyalarining amalga oshirilish shakli ekanligi. Moliyaviy nazorat sohalari: davlat moliyaviy nazorati; nodavlat moliyaviy nazorati. Moliyaviy nazorat o'z ichiga oluvchi tekshiruvlar. Moliyaviy nazorat tizimining bir tipliligi va uning elementlari. Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar. Moliyaviy nazoratning amaliy xarakter kasb etuvchi prinsiplari: natijalilik; nazoratchilar tomonidan talab qilinadigan talablarning aniqligi va mantiqiyliigi; nazorat subektlarining sotib oluvchanmasligi; tekshirish va taftish aktlarida keltirilgan ma'lumotlarning asoslanganligi va isbotlanganligi; preventivlik (moliyaviy buzilmalar ehtimolining ogohlantiriluvchanligi); moliyaviy jinoyatlar bo'yicha shubhalanilayotgan shaxslarning aybsizlik (sudgacha) prezumpsiyasi; turli nazorat organlari faoliyatlarining muvofiqlashtiruvchanligi;

Uy-joy qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha yangi tashkil qilinayotgan ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlariga berilgan soliq imtiyozlari va ulardan maqsadli foydalanish yo'nalishlari.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i

Foyda solig'ini to'lovchilar. Soliq ob'yekti. Jami soliqqa tortiladigan daromadlar va ularning tarkibi. Yuridik shaxslar moliyaviy natijalarining shakllanishi. Mahsulot sotishdan olingan yalpi tushum. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar). Soliq to'langunga qadar foyda (yoki zarar). Foyda solig'i bazasini aniqlashda chegiriladigan va chegirilmaydigan xarajatlar tarkibi.

Soliqqa tortiladigan foydani aniqlash tartibi.

Jami soliqqa tortiladigan foydadan chegirmalar berish tartibi. Bank va sug'urta tashkilotlari bo'yicha chegirmalar. Foyda solig'idan ozod etiladigan yuridik shaxslar va ularning daromadlari.

Foyda solig'i stavkalari. Dividend va foizlar bo'yicha foyda solig'i stavkalari. Norezident va chet el yuridik shaxslarining foydani soliqqa tortish. Soliq hisobotlarini tuzish va topshirish tartibi. Foyda solig'ini to'lash muddatlari. Tugatilayotgan yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi. Soliq to'lovchi yuridik shaxslarning mas'uliyatlari.

Mamlakatimizdagi mahsulot eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, eksport salohiyatini mustahkamlashda eksport hajmiga muvofiq foyda solig'i stavkalarini pasaytirilishi.

Qo'shilgan qiymat solig'i

Qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyati va mazmuni. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash usullari. Qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan oborotni aniqlash.

Soliqqa tortiladigan oborotni korrektirovka qilish. Soliq stavkalari va ularni qo'llash tartibi. Soliq bo'yicha imtiyozlar.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan ba'zi imtiyozlarni takomillashtirish masalalari. Davlat byudjetiga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlash tartibi. Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlash tartibi. Hisob varaq – fakturalar. Hisob varaq – fakturalar asosida qo'shilgan qiymat solig'i hisobini yuritish va soliqqa tortish masalalari.

O'zbekiston hududiga import qilingan tovar (ish va xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari. Soliqni to'lash muddatlari. Qo'shilgan qiymat solig'ining boshqa soliq turlari bilan bog'liqligi.

Ekportyor korxonalarni rag'batlantirishda qo'shilgan qiymat solig'ining nol darajali stavkasining qo'llanishi va xarid qilingan xom ashyo uchun to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini byudjetdan qaytarilish muddatlarining qisqartirilishi.

Ishlab chiqarilgan va import qilingan tovarlarga aksiz solig'i hisoblash va to'lash tartibi

Aksiz solig'ining mohiyati. Soliq tizimida aksiz solig'ining tutgan o'rni. Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati. Soliq solish ob'yekti. Soliq stavkasi. Aksiz solig'i to'lash tartibi. Aksiz markalari bilan markalangan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari. Import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati.

Soliq solish ob'yekti. Aksiz solig'i bo'yicha imtiyozlar. Alkogol ichimliklar, tamaki mahsulotlari va boshqa tovarlarga aksiz markalari qo'llashdagi muammolar.

Aksiz solig'ini hisoblash tartibi, to'lov va hisobot muddatlari. Soliq

to'lovchilarning huquq va majburiyatlari. Aksiz solig'ining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

Mol-mulk solig'i haqida tushuncha va uning kelib chiqish tarixi. Iqtisodiyot uchun mol-mulk solig'ining ob'yektiv zarurati. Byudjet daromadlarini shakllantirishda mol-mulk solig'ining roli va hissasi.

Yuridik shaxslarda mol-mulk solig'ining ob'yektlari. Mol-mulk solig'ini hisoblash usullari va muammolari. Kredit tashkilotlarida mol-mulk solig'ini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari va imtiyozlar. Mol-mulk solig'ini to'lash muddatlari.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i

Yer solig'ining mohiyati va zarurligi. Uning soliqlar tizimidagi iqtisodiy roli va o'рни. Yerga bo'lgan huquq. Yer boniteti va kadastrı. Yer solig'ini o'rnatish tamoyili va uni to'lovchilar.

Yuridik shaxslarda yer solig'i ob'yektini aniqlashdagi muammolar. Yer solig'i stavkasi va imtiyozlari. Yer solig'ini hisoblash tartibi. Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i. Sug'oriladigan yerlarni baholash. Yagona yer solig'ini hisoblash tartibi. Soliq idoralari nazorati.

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturini amalga oshirishda yer solig'ining rag'batlantiruvchi rolini oshirish yo'nalishlari.

Yuridik shaxslar to'laydigan boshqa to'lovlar va yig'imlar

Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga yagona ijtimoiy to'lovning maqsadi va vazifalari. Yagona ijtimoiy to'lovning ob'yekti, stavkasi va to'lash, hisoblash, undirish mexanizmlari. Mahsulot hajmiga nisbatan pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar. Majburiy ajratma ob'yekti, stavkasi va hisobot topshirish tartibi. Yuridik shaxslar tomonidan tovarlar import qilinayotganda to'lanadigan bojxona to'lovlar stavkalari va undirish mexanizmi.

Respublika yo'l jamg'armasiga ajratmalarining maqsadi va mazmuni. Ajratma ob'yektlari va stavkasi. Ajratmani hisoblash va undirish tartiblari.

Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik liseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar uchun majburiy to'lovning maqsadi va mazmuni. Majburiy to'lov undiriladigan ob'yekt. Majburiy to'lov stavkasi va majburiy to'lovni undirish tartibi.

Tovarlarning ayrim turlarini sotish huquqi uchun lisenziya yig'imlar. Yig'im stavkalari. Yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'imlar. Tadbirkorlarning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq sarf-- xarajatlarini kamaytirishda hujjatlarni rasmiylashtirish uchun yig'imlar va ular miqdorining pasaytirilishi.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning mohiyati va ahamiyati

Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlarning mohiyati, ularning soliqlar tizimida tutgan o'rni va roli. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning iqtisodiy (fiskal) va ijtimoiy ahamiyati.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar – rezidentlar va norezidentlar. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan soliq summalarining hisobi. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning o'sish sur'atlari va ularni belgilovchi omillar. Soliq yuki tushunchasi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'imlar, ularni joriy etish va tartibga solishning umumiy qoidalari hamda ularni takomillashtirish muammolari. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida jismoniy shaxslarning daromadlari va mol-mulklarini soliqqa tortish prinsiplari hamda ularni amalga oshirish.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Mehnat haqi shaklida olinadigan daromadlar tarkibi. Soliqqa tortiladigan daromadni aniqlash tartibi. Soliq stavkalari va shkalalari. Daromad solig'i summasini hisoblash tartibi. Asosiy ish joyidan tashqarida olinadigan daromadlar va ularni soliqqa tortish. Jismoniy shaxslarga daromadlar to'langan manbadan soliqlarni ushlab qolish va uni Davlat byudjetiga o'tkazish tartibi. Jismoniy shaxslarning mehnat haqi shaklida olinadigan daromadlari bo'yicha soliq imtiyozlari. Soliqlardan ozod qilingan jismoniy shaxslarning daromadlari. Jismoniy shaxslarning soliqqa tortilmaydigan daromadlari. Xorijiy jismoniy shaxslarni va norezidentlarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.

Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarning tarkibi. Mulkiy daromadlar: foizlar, dividendlar, mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlar, patent egasi bo'lgan jismoniy shaxs uni sotishdan olgan daromadi, qimmatli qog'oz realizatsiya qilishdan tushgan daromad, soliq va majburiy to'lovlar to'lagandan keyin xususiy korxona egasi ixtiyorida qoladigan foyda, royalti. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish. Soliq stavkalari va ularni takomillashtirish masalalari. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarda qat'iy soliq stavkalari, soliq stavkalarini soliqqa tortishning adolatlilik tamoyiliga moslashtirish. Soliqni to'lash tartibi.

Yillik daromad haqidagi deklaratsiyani taqdim etuvchi jismoniy shaxslar toifasi. Deklaratsiya taqdim etuvchi chet el fuqarolari. Yillik umumiy daromad tarkibiga kiritiluvchi daromadlar. Soliqqa tortiluvchi daromaddan chegirmalar va jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliq imtiyozlari. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i to'lashdan ozod etiladigan jismoniy shaxslar. Yillik daromad haqidagi deklaratsiya blanklarining shakli. Soliq to'lovchining yil davomida olinadigan daromadlarining xisobini yuritish. Deklaratsiyani to'ldirish tartibi. Soliq to'lovchining majburiyatlari.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish

bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar asosida aholining yalpi va real daromadlari oshishi va uning xarid qobiliyatini barqaror sur'atlarda o'sishi.

Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan undiriladigan soliq stavkasi va imtiyozlari. Mol-mulk solig'i to'lovchi jismoniy shaxslarni hisobga olish tartibi va muammolari. Jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'ini undirish, hisoblash ishlarini tashkil etish va yuritish muammolarini hal etish.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash va to'lash tartibi. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i ob'yektini aniqlash masalalari va qayta ko'rib chiqish tartibi. Soliq to'lovchilarning mas'uliyatlari va ularning shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibi. Soliq undirish ustidan nazorat.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i.

Yer solig'i stavkalari. Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i solinadigan ob'yektlar. Jismoniy shaxslar bo'yicha yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar. Imtiyoz xuquqining tatbiq etilish va bekor qilinish tartibi. Yer solig'i to'lovchi jismoniy shaxslarning xuquq va majburiyatlari.

Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan boshqa soliqlar va yig'imlar.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni jismoniy shaxslardan olinadigan soliqni to'lash va hisoblash. Uning afzalliklari va kamchiliklari. Ilgari amalda bo'lgan jismoniy shaxslar to'laydigan transport solig'iga nisbatan qulayliklari va uni takomillashtirish. Soliq to'lovchi sub'yektlar. Soliqqa tortish ob'yekti va soliqni to'lash manbalari. Jismoniy shaxslar to'laydigan byudjetdan tashqari majburiy ajratmalar, hisoblash tartibi.

Savdo-sotiq qilish xuquqi uchun yig'im va uning to'lovchilari. Chakana savdo shaxobchalari. Savdo-sotiq qilish xuquqi uchun guvohnoma va uning berilish muddati. Yig'im stavkasi.

Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlar import qilinayotganda to'lanadigan bojxona to'lovlar stavkalari va undirish mexanizmi.

Ayrim turlardagi tovarlarni sotish xuquqini beruvchi lisenziyalar va ularni berish tartibi. Lisenziya yig'imlarning to'lovchilari.

Binolarni ijaraga berish tariflari tadbirkorlik sub'yektlarining joylashgan o'ri va ularning faoliyat turiga qarab belgilanishi.

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE TAYANCH
DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARDAN TALABGORLARNING
BILIMLARINI BAHOLASH MEZONI

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100

Malakaviy imtihon sinovi yozma ravishda o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qo‘yiladigan talablar
86-100	Qo‘yilgan savolga to‘liq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo‘l qo‘yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to‘g‘ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71-85	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas.

**08.00.05 – “XIZMAT KO‘RSATISH TARMOQLARI IQTISODIYOTI”
IXTISOSLIGI BO‘YICHA IMTIHON SAVOLLARI**

1. 2022-2026 yillar davomida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish davlat dasturi va uning asosiy parametrlari
2. Asosiy vositalar holatini, ular bilan ta‘minlanganlik va samaradorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash yo‘llari
3. Asosiy vositalarni baholash usullari
4. Axborot-kommunikatsiya xizmatlari, ularning holati va rivojlantirish muammolari
5. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining hozirgi holati va uni rivojlantirish muammolari
6. Aholiga xizmat ko‘rsatish sohasini yanada kengaytirish, ularni aholi yashash darajasi va sifatini oshirishga yo‘naltirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar
7. Bozor munosabatlari sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirishning konseptual yo‘nalishlari
8. Davlatning turizm siyosatini amalga oshirish mexanizmlari
9. Ilmiy tadqiqot ishda sotsiologik so‘rovnoma tuzish va amalga oshirish bosqichlari
10. Investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish imkoniyatlari
11. Innovatsiya tushunchasi, tasnifi va ularning xizmat sohasi korxona va tashkilotlarini rivojlantirishdagi o‘rni
12. Mehmonxona korxonalarining asosiy xizmatlari
13. Prognoz va rejaning o‘zaro bog‘liqligi
14. Prognoz ko‘rsatkichlarini asoslash usullari
15. Raqobat sharoitida bahoni shakllantirishning metodologik asoslari
16. Savdo va ommaviy ovqatlanish xizmatlari holati va rivojlanish muammolari
17. Servis tushunchasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari
18. Servis tushunchasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari
19. Turizm xizmat bozoriga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar
20. Turizmni rivojlantirishda turistik xizmatlarni loyihalashtirish va turistik sayohatning texnologik xaritasini tuzish jarayonlari
21. Turistik xizmat bozori segmentlari
22. Turistik va ekskursiya xizmatlari mazmuni va rivojlanish istiqbollari
23. Turistik xizmat bozorida marketing strategiyasi
24. Turistik xizmat bozorining mohiyati, funksiyalari va tarkibi
25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020 yildagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalar

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi PF-5781-son “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalar
27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 31 yanvardagi PF-5930-son “Davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalar
28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalar
29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 35 maqsadida belgilangan vazifalar
30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 29 maqsadida belgilangan vazifalar
31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 35 maqsadda belgilangan vazifalar
32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 9 maqsadida belgilangan vazifalar
33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2021 yildagi PQ-5113-son “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalar
34. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va xususiyatlari
35. O‘zbekiston Respublikasida turizm xizmat bozorining holati va uning muammolari
36. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish istiqbollari
37. Xizmat ko‘rsatish va servis korxonalarida fan-texnika taraqqiyotini rejalashtirish, ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar
38. Xizmat ko‘rsatish sohasida samaradorlikning mazmuni, mohiyati va ahamiyati
39. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi franshizing korxonalari

- 40.Xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiya qilishda innovatsiyalarning roli va o'rni
- 41.Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish – aholi turmush darajasini va yashash sifatini oshirishning muhim yo'nalishi sifatida
- 42.Xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotda tutgan o'rni
- 43.Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni
- 44.Xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarida aylanma mablag'lar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va ularni aniqlash yo'llari
- 45.Xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarida tuziladigan biznes rejaning vazifalari va funksiyalari
- 46.Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida asosiy vositalar amortizatsiyasi va uni hisoblash usuli
- 47.Xizmat sohasi korxona va tashkilotlarida mahsulotlar, ishlar, xizmatlar tannarxiga kiruvchi xarajatlar tarkibi, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar, aniqlash va tahlil qilish yo'llari
- 48.Xizmat sohasidagi ishlab chiqarish xarajatlarning mazmuni va tavsifi
- 49.Xizmat turlarini kengaytirish va sifatini tashkil etishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari
- 50.Raqobat tushunchasi va uning turlari. Xizmat ko'rsatish sohasida raqobatning vazifalari va narx belgilashdagi ahamiyati.

TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. A.Taniyev Innovatsion iqtisodiyot SamDU, darslik 2020-yil.
3. B. Safarov, G'.Porsayev, D.Usmanova “Raqamli iqtisodiyot asoslari” SamDU, darslik. 2020-y.
4. L.D.Petrenko, B.Sh.Safarov, A.B.Taniyev, I.I.Ayubov. Moliya va soliqlar //Darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2022. – 456 b.
5. M.R.Boltabayev, I.S.Tuxlyev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduxamidov. Turizm: nazariva va amaliyot. – T.: “Barkamol fayz media” nashriyoti, darslik. 2018. – 400 b.
6. D.Q.Usmanova Buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. – Samarqand, SamDU, 2020. – 388 bet.
7. Hickerson. Business and Information Systems 3/ye. N. Y.: John Wiley & Sons, 2000.
8. Laudon K. C., Laudon J. P. Essentials of Management information systems:

organization and technology. New Jersey: Prentice Hall, 2000.

9. Measuring the Information Society Report. Volume 1. – Geneva: ITU, 2017. – 156 p.
10. Measuring the Information Society Report. Volume 2: ICT country profiles. – Geneva: ITU, 2017. – 252 p.
11. The Global Information Technology Report 2016: Innovating in the Digital economy / Silja Baller, Soumitra Dutta, Bruno Lanvin. – Geneva: Cornell University, INSEAD, WYEF, 2017. – 463 p.
12. The Global Innovation Index 2018: energizing the World with Innovation / editors: S. Dutta, F. Gurry, B. Lanvin. – Geneva: Cornell University, INSEAD, WIPO, 2018. – 430 p.
13. Ralph M. Stair, George W. Reynolds, Principles of Information Systems. A Material Approach – Ninth edition. – 2010 Course Technology, Cengage Learning.
14. Isaev G.N. Informatsionnye sistemy v ekonomike: Uchebnik dlya studentov vuzov. – M.: Omega-L, 2012. – 462 s.
15. Kovalev, M.M. sifrovaya ekonomika – shans dlya Belarusi / M.M.
16. Kovalev, G.G. Golovenchik. – Minsk: Izd. sentr BGU, 2018. – 328 s.
17. Osnovy sifrovoy ekonomiki: uchebnoe posobie / kollektiv avtorov; pod red. M.I. Stolbova, E.A. Brendelevoy. – M.: Nauchnaya biblioteka, 2018. – 238 s.
18. Strelets, I.A. Setevaya ekonomika i setevye rynki: ucheb. posobie / I.A.Strelets. – M: eksmo, 2006. – 208 s.
19. Akbarova Z. Tovar va xizmatlar bozori statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004. – 144 b.
20. Abdullayev Y.A. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob. – T.: Mehnat, 1998.
21. Abdullayev Y. Makroiqtisodiy statistika. 100 savol va javob. – T.: Mehnat, 1998.
22. Budko I.I. Transportnoe obslujivanie turizma : uchebnoe posobie. – M.: Izdatelskiy sentr "MarT", 2006. – 336 s.
23. Burmenko T.D. Sfera uslug: ekonomika. Uchebnoe posobie / T.D. Burmenko, N.N.Danilenko, T.A.Turenko. – M.: KNORUS, 2007. – 328 s.
24. Buxgalterskiy uchet v sfere uslug. Uchebnik. M.A.Vaxrushina, T.P.Karpova, A.M.Petrov i dr.- M.: Rid Grupp, 2011. – 576 s.
25. Bichkov V.P. Predprinimatelskaya deyatel'nost na avtomobilnom transporte. – SPb.: Piter, 2004. – 448 s.
26. Volkov Y.F. Gostinichny i turistskiy biznes. – Roistov-na-Donu,

Feniks, 2009. – 637 s.

27. Mamatkulov X.M. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'ati. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010. – 398 B.
28. Tuxliev N., Abdullayeva T. Uslugi, texnologii i produkty v turizme. – T.: Gos. Nauch. Izd-vo "O'bek-iston milliy ensiklopediyasi", 2009 – 624 s.
29. Tuxliev N., Abdullaeva T. Formalnosti v sisteme v turizme Respubliki Uzbekistoan.-T.: Gos. Nauch. Izd-vo "O'bekiston milliy ensiklopediyasi", 2007. – 504 s.
30. Tuxliyev I.S., Qudratov G'.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik.(Lotin alifbosida) – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. – 260 bet.